



REYTING TIZIMLAR TAHLILI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI HAMDA SOHA ISTIQBOLIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

i.f.d., prof. Azizov Sherzod

O'zbekiston Respublikasi Bojxona

qo'mitasining Bojxona instituti

ORCID: 0009-0000-5218-9093

sherzodazizov77.77@gmail.com

Mamarajabov Abdisamad

O'zbekiston Respublikasi Bojxona

qo'mitasining Bojxona instituti

ORCID: 0009-0004-4509-0334

abdusamad3918@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Respublikamizda turli yo'nalishlarda joriy etilgan reyting tizimlari tahlil qilingan. Shuningdek, reyting tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati bojxona reytingini aniqlashda xususiyatlarni aks ettirish keltirilgan. Reyting tizimini joriy etishda inobatga olinishi lozim bo'lgan tamoyillarga ham to'xtalib o'tilgan bo'lib, muhim tamoyillar sanab o'tilgan. Bundan tashqari, reyting ballarini hisoblashda raqamli texnologiyalarni qo'llash va boshqa tegishli tashkilotlar bilan integratsiya qilish muhimligiga e'tibor qaratilgan hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yetkazib berish zanjiri, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy mexanizmlar, reyting tizimi, barqarorlik reytingi, sug'urta tashkilotlari reytingi, ochiqlik.

АНАЛИЗ СИСТЕМ ОЦЕНКИ, ИХ ХАРАКТЕРИСТИК И ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИМЕНЕНИЯ В ОТРАСЛИ

д.э.н., проф. Азизов Шерзод

Таможенный институт

Таможенного комитета Республики Узбекистан

Мамаражабов Абдисамад

Таможенный институт

Таможенного комитета Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются рейтинговые системы, внешние в различных сферах деятельности нашей республики. Также были выявлены особенности рейтинговых систем и отражения их особенностей при определении таможенного рейтинга внешнеторговой деятельности субъектов хозяйства. Также обсуждаются принципы, которые следует учитывать при внедрении рейтинговой системы, и пересчитываются важные принципы. Кроме того, было уделено внимание важности использования цифровых технологий и интеграции с другими профильными организациями при расчете рейтинговых оценок, разработке соответствующих предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: цепочка поставок, хозяйствующие субъекты, экономические механизмы, рейтинговая система, рейтинг устойчивости, рейтинг страховых организаций, открытость.

ANALYSIS OF RATING SYSTEMS, THEIR CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES FOR APPLICATION IN THE INDUSTRY

DSc, prof. Azizov Sherzod

*Customs Institute of the Customs
Committee of the Republic of Uzbekistan*

Mamarajabov Abdisamad

*Customs Institute of the Customs
Committee of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *The article analyzes the rating systems introduced in our Republic in various areas. It also identifies the specific features of rating systems and reflects their features in determining the customs rating of foreign trade activities of business entities. It also touches upon the principles that should be taken into account when implementing the rating system, and lists important principles. In addition, attention is paid to the importance of using digital technologies and integrating them with other relevant organizations in calculating rating points, and relevant proposals and recommendations are developed.*

Keywords: *supply chain, business entities, economic mechanisms, rating system, sustainability rating, insurance organization rating, openness.*

Kirish.

Jahon bozorida o'z o'rnini, obro'si va mavqeini saqlab qolish niyatidagi har tomonlama kuch va qudratga ega, moliyaviy barqaror yirik gegemon davlatlar o'rtasida o'zaro bir-biriga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar (boj, soliq va boshqa tarif va notarif cheklovlar), ko'rilyotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqilayotgan yo'l xaritalari, misli ko'rilmagan turli ta'qiqlar, shubhasiz dunyo miqiyosida tovar yetkazib berish zanjirining uzilishiga va/yoki jahon bozorida qaysidir ma'noda global xausni yuzaga keltirmoqda, davlatlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro ishonchini so'ndirmoqda. Shu bois, jahon bozoriga sifatli tovar yetkazib berishda yetakchi o'rinlardan birini egallashga bo'lgan harakat barcha rivojlanayotgan mamlakatlarning tub orzusiga aylanmoqda. O'z o'rnida, bunday sharoitda O'zbekistonda ham byudjet xarajatlarini qisqartirish, yashirish iqtisodiyot ulushini keskin kamaytirish, ishsizlikning minimal darajaga tushirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yashil iqtisodiyot tarmoqlariga keng urg'u berish va moliyaviy barqaror halol tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun, mamlakatda yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan, tegishli tartibda ular qo'llab-quvvatlanmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, ularning faoliyati qanchalik halolligi biroz shubha ostida qolmoqda. Chunki, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining halolligi, qonunga itoatkorligi, moliyaviy barqarorligini yaqqol ifodalovchi turlicha nomda ataladigan reyting tizimlari mavjud bo'lishiga qaramasdan va/yoki mavjud bo'lmagan taqdirda ham ularni yaratish hamda qo'llashga oid qator nazariyalar, normativ-huquqiy hujjatlar, amaliyotlar allaqachonlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, hamon yangidan-yangi, zamonaviy va eng ilg'or shaffof reyting tizimlarni yaratish ustida tinimsiz ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki, ularning mavjudligi iqtisodiyotning har bir jabhasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining shaffoflik, barqarorlik, qonuniylik, xavfsizlik kabi tamoyillarga so'zsiz amal qilishini taqozo etadi va ular bilan iqtisodiy munosabatga kirishuvchi har qanday manfaatdor tomonlarda o'zaro bir-biriga bo'lgan yuqori ishonch, hamkorlik, strategik sheriklik tuyg'usini vujudga keltiradi. Bu esa, barcha davlat va jamiyatning iqtisodiy o'sishga erishishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi vazifalarni iqtisodiy mexanizmlarda raqamli texnologiyalarni samarali foydalanish ko'lamini kengaytirmasdan erishib bo'lmaydi. Chunki, qisqa fursatda katta maralarga erishish, iqtisodiy jarayonlarni shaffof tarzda tezlashtirish, soddalashtirish va aniqlashtirishda raqamlashtirishning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda bir nechta yo'nalishlarda, jumladan soliq, qurilish, sug'urta, sog'liqni saqlash va transport tizimlarida faoliyatidan kelib chiqib, subyektlarni reyting tizimi orqali balli tizim asosida baholanmoqda va natijalardan unumli foydalanilmoqda. Quyida ularning bir nechtasiga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlar sharhi.

Reyting yo'nalishida umumiy ma'lumotlar, xususiyatlar va boshqa jihatlari yoritilgan ko'plab adabiyotlar mavjud bo'lib, ular xorijlik Andrich (2018), Cronbach (2017), Koczkodaj (2017) kabi olimlar tomonidan reyting tushunchasi, uning shkalalari va foydalanish xususiyatlari to'g'risida tadqiqot yuritgan bo'lsa, Grechuxin (2008), Koshelyuk (2008), Kartashov (2005) kabi MDH davlatlari olimlari tomonidan reyting tizimini korxonalarga nisbatan qo'llash masalalari bo'yicha o'rganishlar olib borgan.

Respublikamiz olimlarining fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, Professor Xasanovning (2023) tahriri ostida chop qilingan "Moliya va soliqlar" darsligida korxonaning moliyaviy salohiyati moliyaviy siyosatning natijaviy ko'rsatkichi, iqtisodiy o'sishning manbai sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotchi Yo'ldoshevning (2023) fikricha, "korxonaning rivojlanish salohiyati -bu o'ziga xos tarkibiy qismlar (unsur va tashkil etuvchilar)ga ega bo'lgan murakkab tizim bo'lib, uni samarali boshqarish mazkur tizimning qanchalik o'rganilganligiga ko'p jihatdan bog'liq". Mualliflarning salohiyatning tizimli tavsifga egaligi borasidagi qarashlariga qo'shilgan holda, salohiyat resurs, imkoniyat va qobiliyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanuvchi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan tizim ekanligini ta'kidlaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning reyting tushunchasi mohiyati, uni aniqlash, baholash va shakllantirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, ilmiy yondashuvlari, statistik, davriy axborot nashrlarida mavzuga oid chop qilingan ilmiy materiallar, Internet resurslari tashkil qiladi (rasmiiy sayt ma'lumotlari). Ushbu maqolada quyidagi usullardan foydalanilgan: tahlil va sintez, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy va statistik usullar, moliyaviy koeffitsiyentlar usullari (korxonalarning moliyaviy salohiyatini hisoblash), mantiqiy umumlashtirish (xulosalar yasash).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgan (Qaror, 2024a). Unga ko'ra, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish hamda ularga yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi Soliq qo'mitasi tomonidan shakllantirilmoqda, buning uchun alohida "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" elektron platformasi yaratilgan. Mazkur reyting avtomatik tarzda idoralararo axborot almashinuvi orqali aniqlanmoqda.

Shuningdek, reyting Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida reyting natijalarining haqqoniyligi hamda unga bo'lgan jamoatchilik ishonchini yanada oshirmoqda. Bundan tashqari, natijalarni "Soliq" mobil ilovasidan ham ko'rish imkoniyati yaratilgan hamda qo'shimcha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ham tekshirish imkoniyati mavjud.

Barqarorlik reytingi shkala turlarining bir nechtasidan foydalanib, balli tizim asosida aniqlanmoqda va belgilangan mezonlar asosida yig'ilgan ball miqdori maksimum 100 ballni tashkil etmoqda.

Ushbu shkalani tashki etuvchi alohida barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, qoida tariqasida 3 turga bo'lingan:

1. Umumiy ko'rsatkichlar;
2. Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar;
3. Qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar.

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi shkalasi

Barqarorlik darajasi	Reyting ko'rsatkichi	Baho
Yuqori	AAA	96-100 ballar
	AA	91-95 ballar
	A	86-90 ballar
O'rta	BBB	76-85 ballar
	BB	66-75 ballar
	B	56-65 ballar
Qoniqarli	CCC	51-55 ballar
	CC	36-50 ballar
	C	26-35 ballar
Quyi	D	25 ballgacha

Barqarorlik reytingi bir qator davlat idoralarini jumladan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligini hamkorligini qamrab olgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda yuritilayotgan "Shaffof qurilish", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi axborot tizimlar "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasi bilan integratsiya qilingan.

2-jadval

Qurilish-pudrat tashkilotlari reytingi toifalari

Ishonchlik toifasi	Reyting bahosi	Ishonchlik darajasi	Umumiy ballar (foizda)
A	AAA	Birinchi yuqori daraja	$\geq 85\%$
	AA	Ikkinchi yuqori daraja	$\geq 75\%$
	A	Uchinchi yuqori daraja	$\geq 65\%$
B	BBB	Birinchi o'rta daraja	$\geq 55\%$
	BB	Ikkinchi o'rta daraja	$\geq 40\%$
	B	Uchinchi o'rta daraja	$\geq 35\%$
C	CCC	Birinchi qoniqarli daraja	$\geq 30\%$
	CC	Ikkinchi qoniqarli daraja	$\geq 25\%$
	C	Uchinchi qoniqarli daraja	$\geq 20\%$
D	DDD	Birinchi quyi daraja	$\geq 7\%$
	DD	Ikkinchi quyi daraja	$\geq 5\%$
	D	Uchinchi quyi daraja	$< 5\%$

Bir qator davlat idoralari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mazkur reytingni shaffof tarzda aniqlanayotganligining bir belgisi hisoblanadi. Chunki, ko'rsatkich ma'lumotlarini aynan shu yo'nalish bilan shug'ullanayotgan vakillar tomonidan taqdim etish ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubha qoldirmaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tahlil qilib ko'rilganda, mazkur tadbirkorlarning tashqi savdo faoliyatining birorta ko'rsatkichlari hisobga olinmagan, aynan mana shu faoliyati ham reyting ko'rsatkichini o'zgarishiga olib keladi. Tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning asosiy faoliyati eksport-import hisoblanib, mamlakat iqtisodiyotiga ishlab chiqaruvchi qanchalik o'z

hissasini qo'shsa, eksportyor va importyorlar ham o'z hissasini sezilarli ravishda qo'shadilar.

Bundan tashqari, O'zbekistonda reyting tizimida keng qo'llanilayotgan namunalaridan yana biri bu Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qaror asosida Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati samaradorligini hamda natijadorligini oshirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, qurilish-montaj ishlari sifatini yaxshilash maqsadida joriy etilgan Sohaviy qurilish-pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi hisoblanadi (Qaror, 2020).

O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tganligi, asosiy faoliyat turi qurilish-montaj ishlaridan (xizmatlar) iboratligi yuridik shaxslarni qurilish-pudrat tashkilotlari reytingiga kiritish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Reytinglar ballari quyidagilardan shakllantiriladi:

- tegishli reytinglar ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari aniqlanadi;
- har bir mezon bo'yicha ko'rsatkich ballar yig'indisidan iborat bo'ladi;
- har bir mezon bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini ifodalaydi.

Quyidagi hollarda qurilish-pudrat tashkilotlari reytingdan chiqariladi:

- qurilish-pudrat tashkilotining asosiy faoliyat turi boshqa faoliyat turiga o'zgarganda;
- qurilish-pudrat tashkiloti tugatilganda.

Mazkur tashkilotlar quyidagi turlariga qarab alohida reytingi yuritiladi:

- umumqurilish-ijtimoiy;
- melioratsiya va irrigatsiya;
- avtomobil yo'llari, ko'priklar;
- loyiha tashkilotlari.

Ushbu reyting tizimining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, tizim avtomatik tarzda ballni hisoblaydi va reytingining xronologik tarixini saqlab qoladi va biror tashkilotning qaysi o'tgan davr mobaynida reyting darajasi qanday ekanligini bilish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, Sohaviy qurilish-pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi bir qator davlat tashkilotlari bilan integratsiya qilinib, ularning ma'lumotlari ham reyting balini hisoblashda asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, hozirda quyidagi tashkilotlar ma'lumotlari olinmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati;
- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;
- Soliq qo'mitasi;
- Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi;
- "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Sohaviy qurilish-pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingini aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning foizda ifodalanishi ham o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Bu kabi ifodalanishi yig'ilgan ma'lumotlar tahlilidan olingan natijalarni guruhlashda va ularni toifalashda muhim rol kasb etadi.

Shuningdek, yuqori, o'rta, qoniqarli va quyi darajalarni ham yana birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarga ajratilishi reytingni yanada aniq bo'lishiga yordam beradi. Demak, bundan bojxona reytingini ham aniqlashda shu kabi darajalarga ajratish mumkin.

Bundan tashqari, sohaviy qurilish-pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingini aniqlashda bir qator tashkilotlardan ma'lumot olgan holda aniqlanadi, bu esa o'z navbatida reyting uchun asos bo'lgan ma'lumotlarning yanada ishonchliligi hamda aniqligiga sabab

bo'ladi. Bojxona reytingini aniqlashda ham faqatgina bojxona organlarida mavjud ma'lumotlardan emas, balki boshqa davlat va nodavlat tashkilotlardan olinadigan ma'lumotlardan keng foydalanish lozim.

Shuningdek, mamlakatimizda Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan qarorga ko'ra sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida Sug'urtalovchilar reytingi joriy etilgan (Qaror, 2024b).

Sug'urtalovchilarning reytingi 8 ta umumiy ko'rsatkichlar, 5 ta qo'shimcha ball beruvchi hamda 6 ta ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

3-jadval

Sug'urtalovchilar reytingi shkalasi

Sifat darajasi	Reyting ko'rsatkichi	Baho
Yuqori	AAA	96-100+ ballar
	AA	91-95 ballar
	A	86-90 ballar
O'rta	BBB	76-85 ballar
	BB	66-75 ballar
	B	56-65 ballar
Qoniqarli	CCC	51-55 ballar
	CC	36-50 ballar
	C	26-35 ballar
Quyi	D	25 ballgacha

Bu ko'rsatkichlarning davriyligi turli xil bo'lib, yillik, choraklik va oylik muddatlarda ko'rsatkichlar foydalaniladi. Reyting O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida yuritiladi va uning rasmiy veb-saytida har oyning 10 sanasida e'lon qilib boriladi. Natijada, sug'urta xizmatlari iste'molchilari doimiy ravishda sug'urta tashkilotlarining reyting ko'rsatkichlariga asoslanib, sug'urta tashkilotlari xizmatlarini tanlashlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlari reytingi boshqa reyting tizimlaridan farqli o'laroq, balli tizimga asosan aniqlanadi, biroq bu tizimdan foydalanishda ham ballar intervali qo'llangan. Bu esa guruhlash uchun juda qo'l keladi. Ballarni hisoblashda umumiy ko'rsatkichlar, qo'shimcha ball beruvchi va ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanilishi sug'urta tashkilotlari o'zlarining faoliyatini tartibga solishi, qo'shimcha ball olish uchun harakat qilishi hamda ballni kamaytirishdan qochishi uchun turtki vazifasini bajaradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan O'zbekistonda mavjud rasmiy reyting tizimlarining 5 ta eng ilg'or tashkil etilganlarining ma'lumotlari solishtirma jadval shakllantirilib tahlil qilindi (4-jadval).

Tahlil natijalariga ko'ra, barcha reyting tizimlari rasmiy saytda e'lon qilinadi va 4 tasi avtomatlashtirilgan hisoblanadi. Faqatgina 1 tasida ya'ni Sohaviy qurilish pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi tizimi uchun sohada alohida tuzilma (bo'lim) tashkil etilgan bo'lib, qolganlarida mavjud tuzilmalarga qo'shimcha vazifa sifatida yuklangan.

Shuningdek, reytingda baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar soni Avtomobil transportida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashuvchilar reytingini mustasno qilgan holda, 20-30 ta ko'rsatkichlardan faol foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, boshqa tashkilotlar bilan integratsiya qilinishi ham tahlil qilinganda, 3 ta tizimda integratsiya samarali yo'lga qo'yilgan. Biroq, qolgan 2 ta ya'ni Sug'urtalovchilar reytingi va Ilmiy tashkilotlar reytingi tizimida ko'rsatkichlar integratsiyani talab qilmaydi. Faqatgina o'zlarida mavjud ma'lumotlarga asoslanadi.

Tahlil qilinganlar orasida 3 ta tizimda subyektlar 4 toifaga bo'linsa, qolgan 2 tasida 3

toifaga ajratiladi. Tizimning qamrovi darajalarida ham ko'rsatkichlar turlicha bo'lib, barchasida ham shu sohadagi xamma subyektlarida qamrab olmasligi ma'lum bo'ldi.

4-jadval

O'zbekistonda mavjud rasmiy reyting tizimlarining solishtirma tahlil jadvali

Reyting turi	Ball qo'shuvchi mezonlar	Kamaytiruvchi mezonlar	Rasmiy saytda e'lon qilinishi	Alohida tuzilma tashkil etilganligi	Subyektlar toifalari	Imtiyozlar mavjudligi	Avtomatik ko'rsatiladi	Boshqa tashkilotlar bilan integratsiya	Mezonlari soni	Qamrovi
Barqarorlik reytingi	+	+	+	-	Yuqori O'rta Qoniqarli Quyi	+	+	+	23	Barcha
Sohaviy qurilish pudrat va loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi	-	-	+	+	Yuqori O'rta Qoniqarli Quyi	+	+	+	25 39	Qisman
Sug'urtalovchilar reytingi	+	+	+	-	Yuqori O'rta Qoniqarli Quyi	-	+	-	19	Qisman
Avtomobil transportida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashuvchilar reytingi	-	-	+	-	Yuqori O'rta Quyi	+	+	+	8	Barcha
Ilmiy tashkilotlar reytingi	-	-	+	-	Lider Qoniqarli Qoniqarsiz	+	-	-	27	Qisman

Ballarni kamaytiruvchi va qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar mavjudligi bo'yicha o'rganilganda, faqatgina barqarorlik reytingi va sug'urtalovchilar reytingida bu kabi xususiyat mavjudligi aniqlandi.

Yuqorida tahlil qilingan reyting tizimlarining asosiy tamoyillaridan biri bu ochiqlik va shaffoflikdir. Reytingdan olinadigan foyda aslida bu iste'molchilarning qarorini yuqori reyting egalari tomonga o'zgartirish hisoblanib, bu ham marketingning bir yo'nalishidir. Shuni qayd etish joizki, norasmiy reyting tizimlaridan, tasdiqlanmagan reyting shkalalaridan foydalanish shaffoflikni yo'qotadi. Biroq, tegishli hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan va turli tadqiqotlar yordamida isbotlangan shkalalardan foydalanish sezilarli yordam berishi extimoli yuqori.

Ochiqlik va shaffoflikdan tashqari reytingga qo'yiladigan boshqa tamoyillarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, subyektlarning tengligi prinsipini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga sabab shuki, reyting tizimi joriy etilganda, barcha tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning birini biridan ustun qo'ymaslik, qo'llanilgan mezonlar barchasi uchun teng amal qilishi lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida sog'lom raqobatning rivojlanishini asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, qonuniylik prinsipiga ham amal qilish kerak bo'ladi, chunki baholash tartibi, mezonlar, ko'rsatkichlarning tavsifi va shu kabi barcha qismlari hukumat xujjati bilan tasdiqlangan bo'lishi va qonuniy tarzda bo'lishi lozim. Qonunchilik xujjatlarida aks etishi, bu tizimni rasmiylashtiradi va barcha subyektlar tomonidan birdek qabul qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, reyting tizimi natijalaridan boshqa yo'nalishlarda foydalanish uchun ham qonuniy shaklda bo'lishi lozim. Reyting mezonlari va ko'rsatkichlari qonuniy xujjat asosida tasdiqlangan bo'lsa, uning natijalarini ham e'lon qilish zarur hisoblanadi. E'lon qilish ma'lum

bir tashkilot yoki davlat organiga yuklatilishi kerak. Masalan, barqarorlik reytingini e'lon qilish va u to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida amalga oshiriladi.

Reyting tizimining yana bir bo'lishi lozim bo'lgan tamoyillaridan biri bu subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi tamoyili hisoblanadi. Mezonlarni yaratishda va qo'llashda, shuningdek ularni e'lon qilishda, imtiyozlar berishda va turli shunga oid iqtisodiy munosabatlarda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi ushbu tizim ishonchli bo'lishi va noroziliklarsiz qabul qilinishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati bojxona reytingi bir qator tashkilotlar bilan integratsiya qilgan holda avtomatik aniqlanishi lozim.

5-jadval

“Moliyaviy barqarorlik” guruhiga kiruvchi mezonlar jadvali

1	Tashqi savdo aylanmasining o'zgarishi
2	Tashqi savdo faoliyati davri
3	Tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli
4	Korxonaning barqarorlik reytingi
5	Tadbirkorlik subyektining bojxona organlari oldidagi qarzining oxirgi yillik TSA hajmidagi ulushi
6	Tadbirkorlik subyektining debitor qarzdorligining oxirgi yillik TSA hajmidagi ulushi
7	Tadbirkorlik subyektining kreditor qarzdorligi
8	Tadbirkorlik subyektining rentabellik darajasi
9	Tadbirkorlik subyektining banklardagi hisob raqamlari soni
10	Tadbirkorlik subyektlarining hisob raqamlariga qo'yilgan taqiqlar mavjudligi
11	Tadbirkorlik subyektlarining omborlari mavjudligi
12	Tadbirkorlik subyektlarining filiallari soni
13	Tadbirkorlik subyektining asosiy shtatida hisobchi mavjudligi va ish staji

Bu integratsiya jarayoni bojxona organlarining funksiyalaridan kelib chiqib, Soliq organlari, Markaziy bank, Majburiy ijro byurosi, Kadastr agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va boshqa idoralar bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

6-jadval

“Qonunga itoatkorlik” guruhiga kiruvchi mezonlar jadvali

1	Mustaqil ravishda ichki buxgalterlik yoki auditorlik tekshiruvi natijasi
2	Boshqa nazorat organlarining tekshiruvi natijasi
3	Tashqi auditdan o'tganligi
4	MJtKning 171, 171 ¹ , 174, 175, 176, 177 va 227 — 227 ²¹ , 227 ²² -moddaning birinchi qismi, 227 ²³ — 227 ²⁷ -moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri va vakolatli shaxsining, shuningdek, ushbu lavozimlarni oxirgi bir yil davomida egallagan shaxslarning ma'muriy javobgarlikka tortilganlik holatlari
5	Jinoyat Kodeksining 175, 182, 184, 188, 189, 209, 228 va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan holatlari mavjud emasligi
6	Moliyaviy sanksiyalar qo'llanilganligi
7	Bojxona to'lovlaridan qarzdorlik subyektning mol mukidan undirilganlik holati

Tadqiqot olib borilayotgan reyting tizimi bo'yicha ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra korsatkichlarni Moliyaviy barqarorlik, Qonunga itoatkorlik va Import bojxona rejimiga rasmiylashtirish holati guruhlariga bo'linmoqda. Quyida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar uchun mezonlar bayon etilgan:

7-jadval

"Import bojxona rejimiga rasmiylashtirish holati" guruhiga kiruvchi mezonlar jadvali

1	BYUD taqdim qilish intensivligi
2	Taqdim etilgan bitta BYUDga to'g'ri keladigan qiymat
3	BYUDlaridagi xatoliklar sonining jami BYUDlar soniga nisbati
4	BYUDlaridagi xatoliklarning qiymati BYUDlarning umumiy qiymati
5	BYUDlaridagi ixtiyoriy tuzatishlar sonining jami BYUDlar soniga nisbati
6	Oxirgi o'tkazilgan bojxona auditi natijasi
7	Qizil yo'lakka yo'naltirilgan BYUDlarning sonini jami BYUDlar soniga nisbati
8	Ko'k yo'lakka yo'naltirilgan BYUDlarning sonini jami BYUDlar soniga nisbati
9	Tadbirkorlik subyektining importida tovar guruhlarining soni, so'nggi bir yil uchun

Shuningdek, tashqi savdo faoliyat bojxona reytingi tizimi tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ochiqlik;
- shaffoflik;
- subyektlarning tengligi;
- qonuniylik;
- subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Andrich, David. (2018) "A rating formulation for ordered response categories". *Psychometrika*. 43 (4).

Cronbach, Lee J. (2017) "Coefficient alpha and the internal structure of tests". *Psychometrika*. 16 (3).

Grechuxin, Dmitriy Mixaylovich. (2008) *Modelirovaniye investitsionnogo reytinga predpriyatiy : avtoreferat dis. Sankt-Peterburg*, 19 s.

Hasanov B.A. (2023) *Moliya va soliqlar. T.: "Economic World"*, -564 b.

Kartashov, Oleg Yuryevich. (2005) *Obosnovaniye metodov postroyeniya investitsionnogo reytinga predpriyatiy promyshlennosti: dis. Moskva*, 147 s.

Koczkodaj, Waldemar W et al. (2017) "How to reduce the number of rating scale items without predictability loss?". *Scientometrics*. 111 (2).

Koshelyuk, Yuriy Miroslavovich. (2008) *Modelirovaniye investitsionnogo reytinga predpriyatiy : dis. Moskva*, 204 s.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.11.2020-yildagi "Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 699-son qarori.

Qaror (2024a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2024-yildagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son Qarori.

Qaror (2024b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.03.2024-yildagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 108-son qarori.

Yuldashev F. T. (2023) " Iqtisodiyotni o'zgartirish jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari" 08.00.07 –PhD dissertatsiya avtoreferati // T.